

Jarqo'rg'onda terim jarayonlari bilan tanishildi



Bugun viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov hududlarga tashrifini Jarqo'rg'on tumanida davom ettirib, tumanning "Ismoiltepa ziroatchi" hududida joylashgan "Jarqo'rg'on" fermer xo'jaligining 37 hektar maydonda yetishtirilgan ingichka tolali paxta hosili bilan tanishdi va yig'im-terim jarayonlarini ko'zdan kechirdi.

Sanoatda keng foydalaniladigan ingichka tolali paxtaga jahon bozorida talab katta bo'lib, boshqa turdag'i paxta tolasiga nisbatan yuqori narxlarda sotiladi. Hozirda viloyatimizning qator hududalarida vohaning issiq iqlim sharoitiga mos bo'lgan navlarni yetishtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, viloyatda ingichka tolali paxtani qayta ishslash korxonasi bunyod etilmoqda.

Viloyat rahbari terimchilar bilan ham suhbatlashib, g'o'za parvarishida mehnat qilgan mexanizator va suvchilar hamda ilg'or terimchilarga sovg'alar topshirdi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)